Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University

2026 Vol. 56 No. 3
LITERARY STUDIES
https://philmatt.uzswlu.uz

Received: August 6, 2026
Accepted: September 23, 2026
Available online: September 25, 2026

https://doi.org/10.36078/987655600

Original research article / Original tadqiqot maqolasi

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE NATIONAL MYTHOPOETIC WORLDVIEW IN FOLK TALES (Based on Uzbek, English, and Japanese Folklore)

Anora AZIMOVA

Teacher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
ORCID iD: 0009-0000-9770-284X
Email: anoraazimova94@yandex.com

ABSTRACT

This article examines the artistic representation of national-mythopoetic worldviews in Uzbek, English, and Japanese folk tales from a comparative literary perspective. It focuses on three tales: *Nokhatpolvon*, *Jack the Giant-Killer*, and *Momotaro* (桃太郎). The study compares their mythological beliefs, heroic figures, magical objects, and recurring plot motifs to identify both shared folkloric patterns and culturally specific meanings.

The objective is to determine how motifs of heroism, supernatural birth, long journeys, difficult trials, magical assistance, and victory are shaped by different national traditions. The analysis identifies a common narrative pattern across all three tales: the protagonist leaves a familiar environment, enters a dangerous realm, faces successive challenges, and ultimately restores order. Despite this structural similarity, each tale expresses distinct cultural values.

In *Nokhatpolvon*, victory is associated with physical strength, courage, and social justice. In *Jack the Giant-Killer*, intelligence, cunning, strategic planning, and individual initiative are decisive. In *Momotaro*, collective cooperation, mutual loyalty, and the distribution of responsibilities play a central role. These contrasts reveal different understandings of heroism and the relationship between personal achievement and communal welfare.

The study also considers the *dev*, giant, and *oni* as supernatural antagonists. Although these figures perform comparable narrative functions, their mythological backgrounds and cultural associations differ. Their comparison demonstrates how similar narrative roles may be adapted to distinct cultural systems.

The findings show that folkloric universality does not eliminate national specificity. Rather, shared motifs acquire distinctive meanings within particular historical, social, and cultural contexts. Comparing the three tales therefore clarifies how heroism, the opposition between good and evil, and relationships between individuals and communities are represented in Uzbek, English, and Japanese folklore. Each conclusion is grounded in specific episodes from the selected primary texts.

Key words: mythological imagination, functional analysis, motif, Nokhatpolvon, Jack the Giant-Killer, Momotaro, dev, giant, oni, heroism.

For citation:

Azimova, A. (2026). Artistic interpretation of the national mythopoetic worldview in folk tales (based on Uzbek, English, and Japanese folklore). *Philology Matters*, *56*(3), 106–122. https://doi.org/10.36078/987655600.

© Anora Azimova, 2026. Licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

XALQ ERTAKLARIDA MILLIY-MIFOPOETIK DUNYOQARASHNING BADIIY TALQINI (o‘zbek, ingliz va yapon folklori misolida)

Anora AZIMOVA

O‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek, ingliz va yapon xalq ertaklarida milliy-mifopoetik dunyoqarashning badiiy talqini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks ravishda tadqiq etiladi. Maqolada turli xalqlar folkloridagi mifologik tasavvurlar, qahramonlar va sehrli buyumlar tizimi o‘zaro qiyoslanib, ularning milliy va umuminsoniy xususiyatlari ochib berilgan hamda tegishli ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqot materiali sifatida “No‘xatpolvon”, “Devqotil Jek” (“Jack the Giant-Killer”) va “Shaftoli bola Momotaro” (“Momotaro”, 桃太郎) ertaklari tanlanib, ulardagi mushtarak hamda farqlanuvchi syujet-motivlar izchil tahlil qilinadi. Tadqiqot folklor universalligi milliy o‘ziga xoslikni inkor etmasligini, aksincha, umumiy syujet shakllari turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda o‘ziga xos mazmun bilan to‘ldirilishini asoslaydi. Tadqiqotda birlamchi matnlarning nashr etilgan variantlari asos qilib olinib, tahliliy xulosalar muayyan syujet epizodlari bilan dalillanadi.

Ishning asosiy maqsadi uch folklor an’anasida takrorlanuvchi qahramonlik, g‘ayritabiiy tug‘ilish, uzoq safar, og‘ir sinov, sehrli yordam va g‘alaba motivlarining qanday milliy-madaniy mazmun bilan boyishini aniqlashdan iborat. Qiyosiy tahlil natijasida uchala ertakda qahramonning odatiy makondan ajralishi, xavfli hududga kirishi, ketma-ket sinovlardan o‘tishi va yakunda buzilgan tartibni tiklashi kabi umumiy funksional model mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, mazkur modelning badiiy to‘ldirilishi va ma’naviy talqini sezilarli darajada farqlanadi.

“No‘xatpolvon”da g‘alaba jismoniy qudrat, jasorat va ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashsa, “Devqotil Jek”da aql, ayyorlik, puxta hisob-kitob va shaxsiy tashabbus muhim o‘rin egallaydi. “Shaftoli bola Momotaro”da esa jamoaviy hamkorlik, o‘zaro sadoqat va bo‘lingan vazifalarning samarali bajarilishi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Dev, gigant va oni obrazlari funksional jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning mifologik mazmuni va madaniy ildizlari bir-biridan farq qiladi.

Natijalar folklor universalligi milliy o‘ziga xoslikni yo‘qotmasligini, aksincha, umumiy motivlarning turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda yangicha ma’no kasb etishini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv orqali qahramonlik idealining, ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligining, shuningdek, jamoa va shaxs munosabatlarining milliy tafakkurdagi turlicha ko‘rinishlari ochib beriladi. Har bir tahliliy xulosa tanlangan birlamchi matnlardagi muayyan va aniq epizodlar bilan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: mifologik tasavvur, funksional tahlil, motiv, No‘xatpolvon, Devqotil Jek, Shaftoli bola Momotaro, dev, gigant, oni, qahramonlik.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО МИФОПОЭТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В НАРОДНЫХ СКАЗКАХ (на материале узбекского, английского и японского фольклора)

Анора АЗИМОВА

Преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В статье с позиций сравнительного литературоведения исследуются художественные особенности репрезентации национальных мифопоэтических представлений в узбекских,

английских и японских народных сказках. Материалом исследования послужили три произведения: «Нохатполвон» (*Nokhatpolvon*), «Джек – убийца великанов» (*Jack the Giant-Killer*) и «Мальчик-персик Момотаро» (*Momotaro*, 桃太郎). Сопоставление мифологических представлений, образов героев, волшебных предметов и повторяющихся сюжетных мотивов направлено на выявление общих фольклорных закономерностей и культурно-специфических смыслов.

Цель исследования заключается в определении особенностей реализации мотивов героизма, сверхъестественного рождения, дальнего путешествия, преодоления трудных испытаний, получения волшебной помощи и достижения победы в различных национальных традициях. Анализ выявляет общую повествовательную модель, характерную для всех трёх сказок: главный герой покидает привычную среду, вступает в опасное пространство, преодолевает ряд испытаний и в конечном итоге восстанавливает нарушенный порядок. Вместе с тем каждая сказка отражает специфические культурные ценности.

В сказке «Нохатполвон» победа обусловлена физической силой, храбростью и стремлением к социальной справедливости. В произведении «Джек – убийца великанов» решающую роль играют ум, хитрость, стратегическое мышление и личная инициатива. В сказке «Момотаро» центральное значение приобретают коллективное сотрудничество, взаимная преданность и распределение обязанностей. Выявленные различия отражают неодинаковые представления о героизме, а также о соотношении личных достижений и общественного благополучия.

Отдельное внимание уделяется сверхъестественным противникам – деву (*dev*), великану и они (*oni*). Несмотря на сходство их повествовательных функций, мифологические истоки и культурные ассоциации этих образов различаются. Их сопоставление демонстрирует, каким образом сходные сюжетные роли получают специфическое воплощение в различных культурных системах.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что универсальность фольклорных мотивов не исключает национального своеобразия. Напротив, общие мотивы приобретают специфические значения в определённых исторических, социальных и культурных контекстах. Сравнительный анализ трёх сказок позволяет глубже раскрыть особенности репрезентации героизма, борьбы добра и зла, а также взаимоотношений личности и коллектива в узбекском, английском и японском фольклоре. Каждый вывод обоснован конкретными эпизодами анализируемых первоисточников.

Ключевые слова: мифологическое мировосприятие, функциональный анализ, мотив, Нохатполвон, Джек – убийца великанов, Момотаро, дев, великан, они, героизм.

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi namunalari necha asrlar osha ajdodlardan avlodlarga bebaho tuhfa sifatida meros bo‘lib kelmoqda. Folklor namunalari ichida eng ommabop, yosh-u qari tomonidan birdek maroq bilan qabul qilinadigani – bu, albatta, ertaklardir. Zero, xalq ertagi jamiyatning o‘zi haqidagi tasavvurini saqlovchi eng barqaror og‘zaki shakllardan biridir. V.R. Baskom folklorning to‘rt asosiy vazifasini ajratar ekan, uning ko‘ngilochar rolidan tashqari ta’lim berish, ijtimoiy me’yorlarni tasdiqlash va mavjud tartibni oqlash vazifalarini ham bajarishini ko‘rsatgan edi [Bascom, 1954: 343]. Bu yondashuv fantastik syujet ortida aniq ijtimoiy mazmunni izlash imkonini beradi. Ertaklarda qaysi fazilat maqtalishi, qaysi kuch xavfli deb baholanishi va g‘alaba nima hisobiga qo‘lga kiritilishi tasodifiy hodisa emas, balki muayyan etnik jamoaning madaniy va ijtimoiy tanlovini aks ettiradi. Binobarin, ertak tinglovchida muayyan millat dunyoqarashiga xos mifopoetik tasavvurlarni shakllantirish bilan bir qatorda, muhim tarbiyaviy-estetika ahamiyatga ham egadir.

Ushbu metodologik yondashuvning amaliy qiymati qiyosiy materiallar tahlilida

ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Universal syujet sxemalari turli jamiyatlarda takrorlanishi mumkin, biroq undagi sotsiomadaniy bo‘shliqlar har safar o‘zga milliy mazmun bilan to‘ldiriladi. Shu sababli qiyosiy-tipologik tahlilning bosh vazifasi shunchaki o‘xshashliklarni sanash emas, balki o‘sha o‘xshashliklar qatlamiga yashiringan milliy tanlov va o‘ziga xoslikni ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Qiyosiy folklorshunoslikning markaziy muammosi ana shu tanlovni universal sxemadan ajratib olishdan iborat. V.Propp rus sehrli ertaklarini tahlil qilib, personajlarning tashqi ko‘rinishi o‘zgaruvchan bo‘lsa-da, ularning syujetdagi harakatlari cheklangan va takrorlanuvchi ekanini isbotlagan; uning fikricha, funksiyalar ertakning barqaror unsurlarini tashkil etadi [Propp, 1968: 21]. S.Tompson esa xuddi shu barqarorlikni motiv darajasida ko‘rsatib, bir xil motivning geografik jihatdan uzoq an’analarda mustaqil ravishda shakllanishi mumkinligini ta’kidlagan [Thompson, 1946: 415]. Ikkala yondashuv ham o‘xshashlikni tushuntiradi, ammo farqni tushuntirmaydi. A.Dandes aynan shu bo‘shliqni to‘ldirib, matnni uning ijtimoiy va madaniy kontekstidan ajratmaslikni talab qilgan edi [Dundes, 1980: 20].

Mazkur maqolada shu ikki qatlam – universal funksional sxema va uni to‘ldiruvchi milliy mazmun – uchta xalq folklori namunalari misolida o‘zaro qiyoslanadi. Tahlil uchun bir-biridan geneologik va tipologik jihatdan mustaqil uch an’ana tanlandi: o‘zbek xalq ertagi “No‘xatpolvon”, ingliz xalq ertagi “Jack the Giant-Killer” (“Devqotil Jek”) va yapon xalq ertagi “Momotaro” (桃太郎). Uchala matnda ham tashqi jihatdan ojiz yoki oddiy ko‘ringan qahramon o‘zidan bevosita kuchli turuvchi g‘ayritabiiy raqibga qarshi chiqadi va uni yengadi. Biroq bu g‘alabaning badiiy-struktural mexanizmi hech bir holatda takrorlanmaydi. Uch millat qahramonlari o‘z milliy dunyoqarashi va etnik mentalitetidan kelib chiqqan holda mavjud to‘siqlarni jasurlik, intellektual salohiyat va jamoaviylik kabi dominant insoniy xususiyatlar orqali yengishadi.

Tadqiqotning ilmiy dolzarbligi shundaki**,** o‘zbek folkloriga oid materiallar xalqaro qiyosiy tadqiqotlar kontekstiga hamon yetarli darajada jalb etilmagan. Xususan, tadqiqotchi G.Mashrapova o‘zbek ertaklaridagi kvest (izlanish) syujetlarini xalqaro kataloglar bilan qiyosiy tahlil qilar ekan, aynan shu metodologik bo‘shliqni qayd etadi [Mashrapova, 2026]. Yana bir muhim jihat shundaki, mavjud qiyosiy-tipologik izlanishlar ko‘pincha shunchaki sirtqi o‘xshashliklarni sanash bilan cheklanadi. Masalan, P.Ajiye va A.Mustofa “Momotaro” bilan “Jack and the Beanstalk” (“Jek va loviya poyasi”) ertaklarini V.Proppning bosh funksional modellari asosida qiyoslab, ikki matnning strukturaviy yaqinligini ko‘rsatishgan, biroq bu badiiy invariantlikning sotsiomadaniy va lingvomentallik asoslarini ochib bera olishmagan [Ajiye & Mustofa, 2014]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ular tahlil obyekti sifatida tanlagan “Jack and the Beanstalk” ertagi mazkur maqolada o‘rganilayotgan “Jack the Giant-Killer”dan mutlaqo farqli syujet tipiga (ATU tasnifiga) mansubdir [Uther, 2004].

Tadqiqot obyekti sifatida mazkur uch an’ananing tanlanishi ham metodologik jihatdan muayyan ilmiy mezonlarga asoslanadi. Ular geografik jihatdan bir-biridan uzoq hududlarda joylashgan bo‘lib, til oilalari bo‘yicha genetik jihatdan bog‘lanmagan va tarixiy-madaniy aloqalari kontaktologik jihatdan hujjatlashtirilmagan. Aynan shu dispozitsion (uzoqlik) sharoit qiyosiy tahlil uchun obektiv ilmiy fon yaratadi:

agar shunday izolyatsiyalashgan struktura sharoitida ham bir xil funksional sxema kuzatilsa, uni shunchaki genetik o‘zlashtirish yoki migratsion ta’sir bilan izohlash mantiqan imkonsizdir. Bundan tashqari, uchala matn ham o‘z milliy folklorik an’anasida markaziy o‘rin egallaydi va akademik nashrlarda kanonik (muhrlangan) matn sifatida qayd etilgan, ya’ni ular periferik (chekka) variantlar emas [Uther, 2004: 8]. Shu ikki mezon – tipologik mustaqillik va folklorik markaziylik – tadqiqot materiallari tanlovini belgiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi esa unda qiyos faqat sirtqi motivik darajada emas, balki bevosita syujetni harakatlantiruvchi “g‘alaba mexanizmi” sathi doirasida olib borilishi bilan bog‘liq. Qahramon aynan qaysi dominant qadriyat hisobiga yutadi degan savol, bizningcha, milliy dunyoqarashning lingvomentallik xususiyatlarini shunchaki relyativ (nisbiy) motivlar ro‘yxatidan ko‘ra aniqroq va konseptualroq namoyon etadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotning manbaviy bazasini shakllantirishda quyidagi fundamental manbalarga tayanildi: o‘zbek folklor an’anasi uchun “O‘zbek xalq ertaklari” to‘plamidan foydalanildi [Afzalov va boshq., 1988]; ingliz ertakchilik maktabi E.Leng tahriri ostidagi “The Blue Fairy Book” hamda J.Jeykobsning klassik “English Fairy Tales” nashrlari bo‘yicha o‘rganildi [Lang, 1889; Jacobs, 1890]; yapon an’anaviy matni Y.T. Ozaki va K.Sekining ingliz tilidagi akademik nashrlari asosida manbaviy tahlilga tortildi [Ozaki, 1903; Seki, 1963].

Tadqiqotda tizimli tarzda uch asosiy metodologik yondashuvdan foydalanildi. Birinchidan, strukturaviy-funksional metod V.Proppning klassik modeliga tayanadi va uchala badiiy matndagi qahramon, antagonist, yordamchi, sinov hamda g‘alaba funksiyalarini yagona tipologik tekislikda qiyoslash imkonini beradi [Propp, 1968]. Ikkinchidan, motivologik metod S.Tompsonning xalqaro motivlar tasnifi asosida qahramonning g‘ayritabiiy tug‘ilishi, sehrli atributlar va zomorf-yordamchi motivlarini matn tarkibida kuzatadi [Thompson, 1946]. Uchinchidan, lingvomadaniy metod esa qahramon va antagonist nomlaridagi ichki badiiy shakl, ularning madaniy konnotatsiyalari hamda matnlararo interpretatsiya (tarjima)da yo‘qoladigan etnomadaniy ma’no qatlamlarini eksplikatsiya qilish (ochib berish)ga qaratilgan.

Tadqiqotning metodologik chegaralari ham alohida belgilanishi taqozo etiladi. Zero, tipologik o‘xshashlik hech bir holatda tarixiy-genetik aloqa bilan tenglashtirilishi mumkin emas. S.Tompson bir xil badiiy motivning turli folklorik an’analarda mustaqil paydo bo‘lishini tabiiy qonuniyat (normal hodisa) deb hisoblagan [Thompson, 1946], X.-Y.Uter esa xalqaro katalogda bir tipga kiruvchi matnlarning tarixiy jihatdan bog‘liq bo‘lishi shart emasligini konseptual tarzda ta’kidlaydi [Uther, 2004: 8]. Shu sababli quyidagi qiyosiy tahlilda aniqlangan o‘xshashliklar shunchaki o‘zlashtirish (migratsiya) dalili sifatida emas, balki tipologik qiyos uchun metodologik asos sifatida talqin qilinadi.

Yapon ertagi ingliz tilidagi nashrlar orqali o‘rganildi, ya’ni tahlil tarjima qatlamidan o‘tgan variantga tayanadi. Zero, bu aniqlik va qiyoslashda yengillik

maqsadida amalga oshirildi. R.Finnegan og‘zaki matnning yozma qayd etilishi uni muqarrar ravishda o‘zgartirishini ta’kidlagan edi [Finnegan, 1992: 15], R.Bauman esa ijro sharoitining matn mazmuniga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan [Bauman, 1977: 27]. Shu sababli quyidagi xulosalar og‘zaki ijroga emas, nashr etilgan matnlarga taalluqli deb tushunilishi kerak. Bu cheklov qiyosning o‘zini bekor qilmaydi, ammo uning doirasini aniqlaydi.

NATIJALAR

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida qahramonlik ertaklarining xarakterli namunasi sanalgan “No‘xatpolvon” matni mifopoetik va badiiy tahlilning eng qulay boshlanish nuqtasidir. Qahramon nomidagi “No‘xat” va “polvon” so‘zlarining birikishi ikki turlicha badiiy maydonni yagona obraz tizimida to‘qnashtiradi: birinchisi kichiklik va arzimaslikni, ikkinchisi esa kurash maydonidagi jismoniy ustunlikni bildiradi. Bu birikma qahramonning badiiy mohiyatini oldindan bayon qiladi. Adabiyotshunos M.Lyuti Yevropa ertagining tipik xususiyati sifatida qahramonning tashqi ko‘rsatkichlari bilan ichki imkoniyati o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatgan edi [Lüthi, 1982]. O‘zbek folklor materiali bu kuzatishni tasdiqlaydi, ammo unga o‘ziga xos badiiy urg‘u qo‘shadi: bu yerda mazkur nomutanosiblik hazil ohangida emas, balki o‘zbek dostonchilik an’analariga xos bo‘lgan epik-bahodirlik ohangida hal qilinadi.

Qahramonning badiiy kelib chiqishi (genezisi) jihatidan adabiyotshunoslikda muayyan konseptual qarashlar mavjud. Xususan, no‘xatdan yaralgan qahramon motivi S.Tompsonning xalqaro motivlar tasnifida g‘ayritabiiy tug‘ilish turkumiga kiradi va u o‘simlik yoki mevani iste’mol qilish orqali mo‘jizaviy homiladorlik kabi keng tarqalgan kategoriyalar bilan bir qatorda baholanadi [Thompson, 1946]. Bu jihat metodologik jihatdan muhim, chunki u qahramonlikning mifopoetik manbasini oldindan belgilaydi:

“Chol temirchining oldiga qaytib borib, cho‘yandan gurzi yasatipti va aravaga solib olib kelibdi. No‘xatpolvon gurzini aravadan olib, yana aylantirib otib yuboribdi. Gurzi yana uch kundan keyin yerga tushipti va bu gal sinmabdi” [Afzalov va boshq., 1988].

No‘xatpolvon o‘z kuchini mashq yoki tajriba orqali orttirmaydi, u shu kuch bilan dunyoga keladi. Shu ma’noda uning qudrati tarbiyaning emas, taqdirning natijasi.

Bu motivning xalqaro tarqalishi alohida izoh talab qiladi. No‘xatdan tug‘ilgan bahodir syujeti sharqiy slavyan an’anasida ham keng ma’lum va xalqaro katalogda mustaqil tip sifatida qayd etilgan [Uther, 2004]. Bu holat o‘zbek variantining qiymatini kamaytirmaydi. Aksincha, u qiyosiy tahlil uchun qulay: bir xil boshlang‘ich motiv turli an’analarda turlicha davom etadi. A.Aarne va S.Tompson tuzgan tasnif tizimining asosiy vazifasi ham aynan shunday variantlarni bir-biri bilan solishtirish imkonini berishdan iborat edi [Aarne & Thompson, 1961].

“Polvon” so‘zining o‘zi esa o‘zbek madaniyatida aniq ijtimoiy institutga ishora qiladi. Zero, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da ilk ma’nosi jismoniy jihatdan kuchli, baquvvat kishi; bahodir, pahlavon. Ikkinchi ma’nosi, bu – kurash an’anasi bilan bog‘liq maqom bo‘lib, u shunchaki kuchni emas, jamoa tomonidan tan olingan kuchni bildiradi

[Madvaliyev, 2020: 65]. Qahramonning nomi shu tariqa uni mifologik makondan olib chiqib, tanish ijtimoiy tartibga joylashtiradi. A.Dandes folklor atamalarining bunday ikki yoqlama ishlashi, ya'ni bir vaqtda syujet ichida va jamoa hayotida ma'no tashishini kontekstual tahlilning asosiy predmeti deb hisoblagan [Dundes, 1980: 3].

Syujetning harakatlantiruvchi kuchi – bu ijtimoiy tartibning buzilishi. Dev yoki unga o'xshash g'ayritabiiy kuch yaqinlarni asir oladi yoxud jamoani xavf ostiga qo'yadi, qahramon esa aynan shu buzilishga javob sifatida yo'lga chiqadi. V.R. Baskom folklorning tartibni tasdiqlash vazifasi haqida yozar ekan, qahramonning g'alabasi ko'pincha jamoa tomonidan ma'qullangan holatning qayta tiklanishi ekanligini qayd etgan [Bascom, 1954: 346]. "No'xatpolvon"da bu tiklanish deyarli to'g'ridan to'g'ri amalga oshadi: qahramon devni bevosita kuch bilan yengadi, hiyla yoki vositachiga murojaat qilmaydi.

"— Shu quduqni boltasiz, olovsiz buzsang, ketasan, bo'lmasa, o'lasan, – depti dev. No'xatpolvon quduqni gurzi bilan bir urib chilparchin qilipti va shunday tezkorlik bilan devning ham kallasini uzib tashlapti. Birpasda devning o'ligini quzg'unlar o'rab olishipti" [Afzalov va boshq., 1988: 98].

Aynan shu bevositalik o'zbek modelining o'ziga xosligini belgilaydi. Qahramonning ustunligi qurol, sehrli buyum yoki ittifoqchida emas, uning tanasida. Bunday yechim kuchni axloqiy toifaga aylantiradi – kuchli bo'lish shu bilan birga haqli bo'lishni anglatadi. A.Dandes folklor matni jamoaning qadriyatlar iyerarxiyasini bilvosita ifodalashini ta'kidlaganida ana shunday holatlarni nazarda tutgan edi [Dundes, 1980: 33].

O'zbek og'zaki ijodining kengroq tizimi ham xuddi shu yo'nalishni tasdiqlaydi. Qahramonlik dostonlari an'anasida bahodirning jismoniy qudrati uning ijtimoiy mavqeyini bevosita belgilaydi, kuch esa jamoani himoya qilish majburiyati bilan birga keladi. "No'xatpolvon" shu registrning ertak shakliga siqilgan ko'rinishi sifatida o'qiladi. V.R. Baskom nasriy folklor shakllarini ajratganda ertak va qahramonlik hikoyalari o'rtasida qat'iy chegara yo'qligini, ular bir an'ana ichida o'zaro almashinishini qayd etgan edi [Bascom, 1965: 8].

Ertakning ikkinchi qatlami, ya'ni ijtimoiy-satirik qatlam ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. No'xatpolvonning raqiblari orasida faqat mifologik mavjudotlar emas, ochko'zlik, xasislik va zulm bilan bog'lanuvchi obrazlar ham uchraydi. Bu qatlam qahramonlik syujetini kundalik ijtimoiy tajribaga yaqinlashtiradi. Natijada g'alaba ikki ma'noga ega bo'ladi: mifologik darajada u yovuz kuch ustidan qozonilgan zafar, ijtimoiy darajada esa adolatsizlikka berilgan javob. J.Zayps ertak janrining tarixiy o'zgaruvchanligi haqida yozar ekan, aynan shunday ikki qavatli mazmun janrning uzoq yashovchanligini ta'minlashini ko'rsatadi [Zipes, 2006: 45].

"Jack the Giant-Killer" ingliz xalq og'zaki ijod namunalarining Arturian davrida vujudga kelgan eng yorqin namunasi o'laroq, ertak orqali shaxsiy tashabbus, donishmandlik, aql bilan ish tutish kerakliligi singdirilgan. Aynan qaysi davrga mansub ekanligini ertak ibtidosidagi jumlalardan bilish mumkin. Bu texnika orqali xalq orasida folklor namunalari ta'siri vositasida qirol hurmati va ehtiromini yuksaltirish ham yashirilgan.

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda, yaxshi podsho Artur hukmronlik qilgan davrda Angliyaning Kornuoll degan go‘zal o‘lkasida bir dehqon yashagan ekan. Uning Jek ismli yolg‘iz o‘g‘li bor ekan” [Jacobs, 1890: 99].

Ingliz ertagi yuzaki qaraganda o‘zbek matni bilan bir xil vazifani bajaradi: kichik qahramon ulkan raqibni yengadi. Biroq g‘alabaning mexanizmi butunlay boshqacha. Jekning birinchi jangi buni yaqqol ko‘rsatadi. U Sent-Maykl tog‘idagi gigant Kormoranga qarshi ochiq kurashga kirishmaydi; kechasi uning uyi oldida chuqur qazib, uni shox-shabba bilan yopadi va tong saharda karnay chalib gigantni uyg‘otadi. G‘azablangan Kormoran yugurib chiqadi va o‘zi qazilgan tuzoqqa quladi; Jek uni ketmon bilan halok qiladi [Lang, 1889: 366].

Bu epizodda hech qanday jismoniy ustunlik yo‘q. Jekning yagona quroli – vaqtni tanlash, joyni tayyorlash va raqibning fe’lini oldindan hisobga olish. Keyingi to‘qnashuvlar ham xuddi shu mantiqni takrorlaydi. Gigant Blanderbor Jekni asirga olganida, u arqondan sirtmoq yasab, gigantni deraza orqali bo‘g‘adi; ikki boshli Tanderdel esa Jek oldindan arralab qo‘ygan ko‘prikdan o‘tayotib suvga cho‘kadi [Jacobs, 1890: 99]. Har uch holatda ham raqibning kuchi uning o‘ziga qarshi ishlatiladi.

Faqat oxirgi bosqichda sehrgar gigant Galligantua bilan kurashda Jek sehrli buyumlardan foydalanadi: ko‘rinmas plash, bilim qalpog‘i, o‘tkir qilich va tez yuruvchi poyabzal [Lang, 1889: 379]. Ammo bu buyumlar unga tayyor holda in’om etilmaydi; u ularni oldingi jangda o‘zi qo‘lga kiritadi. Ya’ni, sehrli yordam ham qahramonning avvalgi harakatining natijasi bo‘lib chiqadi.

Qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi ham diqqatga sazovor. Jek – dehqon o‘g‘li, ya’ni na zodagon, na tanlangan shaxs. Uning yagona sarmoyasi – mehnat ko‘nikmasi va topqirlik. I.Oupi va P.Oupi bu turdagi syujetlarning arzon nashrlar orqali keng tarqalganini va ular asosan quyi tabaqa o‘quvchisiga mo‘ljallanganini ko‘rsatadilar [Opie & Opie, 1974: 47]. Shu jihatdan gigantni yengish epizodi ijtimoiy ma’no ham kasb etadi: kichik odam katta kuchni o‘z aqli hisobiga yengadi.

Syujetning Artur qiroli davriga joylashtirilishi esa unga boshqa qatlam qo‘shadi. Ertak yakunida Jek Dumaloq stol ritsari darajasiga ko‘tariladi, ya’ni shaxsiy jasorat rasmiy tan olinishga aylanadi [Lang, 1889: 383]. T.Grin bu bog‘lanishni sun’iy qo‘shimcha emas, an’ananing tabiiy davomi deb baholaydi va Jek obrazining Arturiana bilan aloqasi ancha erta shakllanganini ta’kidlaydi [Green, 2007: 124]. Natijada mahalliy jangchi milliy tarixiy ramz darajasiga chiqadi.

Ertakning mahalliy zamini alohida ahamiyatga ega. T.Grin “Jack the Giant-Killer” syujetini Arturiana doirasidagi an’analar bilan bog‘lab, uning Kornuoll va Uels topografiyasiga mahkam biriktirilganini ko‘rsatadi [Green, 2007: 128]. Gigantlar mavhum yovuzlik emas, ular aniq tog‘, aniq g‘or va aniq qal’a bilan bog‘langan. K.M. Briggs Britaniya ertaklari katalogida bunday obrazlarning ko‘pchiligi mahalliy joy nomlari orqali saqlanganini qayd etadi [Briggs, 1970: 351]. Shu sababli Jekning g‘alabasi mahalliy jamoaning o‘z hududini egallash tarixi sifatida ham o‘qiladi.

Qahramonlik modelining o‘zi esa individual: Jek na oiladan, na jamoadan yordam oladi; u qarorni yolg‘iz qabul qiladi va natija uchun yolg‘iz javob beradi. I.Oupi va P.Oupi ingliz ertak an’anasida shaxsiy tashabbusning markaziy o‘rin egallashini

ta'kidlaganlarida ana shu xususiyatni nazarda tutganlar [Opie & Opie, 1974: 61]. Bu – o'zbek matnidagi tug'ma qudratdan ham, yapon matnidagi hamkorlikdan ham farq qiluvchi uchinchi yo'l.

Ikki jahon urushlarida ham o'z jasorati va jamoaviy qahramonliklari orqali butunjahon xalqlariga o'rnak bo'la olgan Yaponiya o'z farzandlarida ham xuddi shunday insoniy hislatlarni tarbiyalash maqsadida qadimgi folklor namunalarida ham shu jihatlarga katta e'tibor qaratadi. Yaponiya bolalar folklorida eng mashhur ertak bu "Momotaro" (桃太郎). Yapon ertagi qahramonning paydo bo'lishidan boshlanadi va bu boshlanish uni boshqa ikki matndan darhol ajratib turadi. Farzandsiz keksa er-xotindan kampir daryoda kir yuvayotganda oqib kelayotgan ulkan shaftolini topadi; uyda shaftolini kesmoqchi bo'lganda ichidan bola chiqadi. Unga Momotaro – "shaftoli o'g'li"degan nom beriladi [Ozaki, 1903: 244]. Motiv S.Tompsonning g'ayritabiiy tug'ilish guruhiga to'liq mos keladi [Thompson, 1946: 121], ammo yapon matnida u boshqa vazifani bajaradi: shaftoli qahramonga kuch bermaydi, unga vakolat beradi. Momotaro oddiy bola bo'lmagani uchun favqulodda vazifani o'z zimmasiga olishga haqli bo'ladi.

Syujetning markaziy qismi safar bilan bog'liq. Momotaro oni (鬼)lar yashaydigan Onigasima (鬼ヶ島) oroliga yo'l oladi va onasidan yo'lga kibi-dango (黍団子) – guruchli xamir kulchalarini oladi [Seki, 1963: 41]. Yo'lda unga navbat bilan it, maymun va qirg'ovul qo'shiladi; ularning har biri kulchani olgani evaziga hamroh bo'lishga rozi bo'ladi.

Bu almashuv epizodini oddiy ovqatlanish sahnasi deb qarash mumkin emas. Kibi-dango (黍団子), ya'ni guruchdan tayyorlangan Yapon milliy shirinligi bu yerda shartnoma vositasiga aylanadi: u qahramon bilan hayvonlar o'rtasida o'zaro majburiyat o'rnatadi. Yordamchilarning tanlovi ham tasodifiy emas. It hidni sezadi va yo'l boshlaydi, maymun devorga tirmashadi va qal'a ichiga kiradi, qirg'ovul esa havodan hujum qilib onilarning diqqatini chalg'itadi. Ya'ni, har bir hamroh takrorlanmas vazifani bajaradi. V.Propp yordamchi funksiyasini ajratganda uning qahramon imkoniyatini kengaytirishini ko'rsatgan edi [Propp, 1968: 43]; "Momotaro"da bu kengayish miqdoriy emas, sifatiy xarakterga ega.

Kibi-dango orqali o'rnatilgan munosabatning shakli ham ahamiyatli. Hayvonlar Momotaroga tenglar sifatida emas, xizmatiga kirgan hamrohlar sifatida qo'shiladi; almashuv ochiq shartnoma ko'rinishida bayon qilinadi [Seki, 1963: 45]. Bu tuzilma yapon an'anasidagi tobelik va sadoqat munosabatlarini eslatadi. B.Malinovskiy og'zaki hikoyalarning ijtimoiy tuzilmani asoslash vazifasini bajarishi haqida yozganida ana shunday holatlarni nazarda tutgan edi [Malinowski, 1948]. Ya'ni, ertak hamkorlikni umuman emas, muayyan shakldagi hamkorlikni ma'qullaydi.

Yakuniy epizod ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak:

"Chol bilan kampir esa Momotaroni ko'rib, ko'zlariga yosh olib:

– Bolajonimiz sog'-salomat qaytibdi! – deb quvonishibdi.

Momotaro esa:

– Men yolg'iz o'zim emas, do'stlarim bilan birga g'alaba qozondim. Birlik va do'stlik bo'lsa, eng katta qiyinchiliklarni ham yengish mumkin, – debdi" [Iwaya,

1894].

Momotaro onilarni yengib, ular to‘plagan xazinani olib qaytadi va uni keksa ota-onasiga topshiradi [Ozaki, 1903]. G‘alaba shu tariqa shaxsiy shuhrat bilan emas, jamoaga qaytarilgan boylik bilan yakunlanadi. Uch ertak orasida faqat yapon matnida qahramonlik natijasi moddiy shaklda oilaga qaytariladi – bu yordamchilar bilan bog‘liq jamoaviy mantiqning izchil davomi.

Shu sababli yapon matnidagi g‘alabani yagona qahramonning yutug‘i deb baholab bo‘lmaydi. Momotaro kuchli, ammo uning kuchi yolg‘iz o‘zi bilan chegaralanganda yetarli bo‘lmaydi; natija to‘rt ishtirokchining muvofiqlashgan harakatidan tug‘iladi. Bu yerda qahramonlik jamoani boshqarish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Ertakning keyingi tarixi alohida mavzu: K.Antoni Momotaro obrazining XX asr boshlarida maktab darsliklari orqali milliy ideologiya vositasiga aylantirilganini batafsil ko‘rsatgan [Antoni, 1991: 165]. D.A. Henri esa I.Sazanamining 1894-yildagi qayta ishlangan variantini imperiya davri bolalar adabiyoti kontekstida tahlil qilib, xuddi shu syujetning siyosiy o‘qish uchun qanday moslashtirilganini kuzatishadi [Henry, 2009: 220]. Bu holat J.Zaypsning ertak matni tarixiy jihatdan barqaror emas, balki qayta ma’nolanuvchi tuzilma degan tezisini tasdiqlaydi [Zipes, 2012: 13-14].

MUNOZARA

Ertaklardagi yovuz dushmanlar – dev, gigant va oni obrazlarining funksional yaqinligi hamda badiiy-g‘oyaviy o‘ziga xosligi shundaki, uchala ertakdagi antagonistlar syujet strukturasidagi vazifasi bo‘yicha bir xil badiiy o‘rinni egallaydi. Ular qahramon faoliyatiga to‘siq qo‘yadi, mavjud epik tartibni buzadi va uning qayta tiklanishi uchun bartaraf etilishi taqozo etiladi. V.Propp modelida bu – zararkunandalik (zarar yetkazish) funksiyasidir [Propp, 1968: 29-30]. Biroq bunday funksional tenglik badiiy-konseptual tenglikni anglatmaydi va aynan shu estetik farq milliy dunyoqarashning eng aniq mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Oni misolida bu farq eng yorqin ko‘rinadi. N.T. Rayder yapon demonologiyasi tarixini o‘rganib, oni obrazi buddizm ta’siri ostida shakllangan, dastlab do‘zax posbonlari bilan bog‘langan va vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy chetlashtirilgan guruhlarni belgilash uchun ham ishlatilganligini ko‘rsatadi [Reider, 2010: 29]. U alohida maqolasida obrazning keyingi asrlarda qo‘rqinchli mavjudotdan ommaviy madaniyat qahramoniga aylanish jarayonini kuzatadi [Reider, 2003]. Demak, oni – tarixiy jihatdan qatlamli tushuncha, uni oddiygina “dev” deb tarjima qilish uning diniy va ijtimoiy fonini yo‘qotadi.

Ingliz gigantiga esa boshqa qatlam xos. U ilohiy yoki diniy tizimga bog‘lanmaydi: uning asosiy belgisi – hududni egallashi. T.Grin ko‘rsatganidek, Britaniya gigantlari ko‘pincha aniq geografik nuqtaga mahkamlangan va mahalliy tarix bilan birga eslanadi [Green, 2007]. Ular mahalliy jamoa uchun tashqi bosqinchi obrazini bajaradi.

Dev esa Markaziy Osiyo va turkiy xalqlar mifologik tizimida boshqacha o‘rin tutadi. U ko‘pincha odam bilan aloqaga kirishadi, gaplashadi, shartlashadi va shu bilan axloqiy sinov manbasiga aylanadi. M.Eliade mifologik mavjudotlarning bunday oraliq maqomi arxaik dunyoqarashda tartib va tartibsizlik chegarasini belgilashini

ta’kidlagan edi [Eliade, 1963].

K.Levi-Stross mif tahlilida qarama-qarshiliklar tizimi mazmun tashuvchi asosiy vosita ekanini ko‘rsatgan [Lévi-Strauss, 1955]. Uch ertakda ham inson va g‘ayritabiiy kuch, tartib va tartibsizlik oppozitsiyalari mavjud. Farq shundaki, bu oppozitsiyalarning ikkinchi a’zosi har bir madaniyatda o‘ziga xos tarixiy mazmun bilan to‘ldirilgan. Shuning uchun dev, gigant va onini bir maxluqning uch nomi deb emas, bir funksiyaning uch madaniy talqini deb qarash to‘g‘riroq.

Bu xulosaning amaliy natijasi tarjima masalasiga tegishli. Oni so‘zini “dev”, dev so‘zini “giant” deb o‘girish syujet darajasida to‘g‘ri, ammo semantik darajada yo‘qotishli. Tarjimada obrazning diniy foni, mahalliy topografiyaga bog‘liqligi va ijtimoiy konnotatsiyasi tushib qoladi. B.Holbek folklor matnini talqin qilishda aynan shunday “ko‘rinmas” qatlamlarni tiklash zarurligini ta’kidlagan edi [Holbek, 1987]. Qiyosiy tadqiqotda esa bu qatlamlarni hisobga olmaslik matnlarni sun’iy ravishda birxillashtiradi.

Bu farqlarning ijtimoiy izohi ham mavjud. Antagonist obrazi ko‘pincha muayyan jamoa uchun eng dolzarb tahdidni umumlashtiradi: bosqinchi, tabiiy ofat yoki ichki tartibsizlik. B.Bettelxaym ertakdagi yovuz kuchning aniq va bo‘rttirilgan shaklda tasvirlanishi tinglovchiga qo‘rquvni nomlash imkonini berishini ko‘rsatgan edi [Bettelheim, 1976: 24]. Uchala matnda ham antagonist mavhum emas, u ko‘rinadigan, o‘lchanadigan va yengiladigan darajada aniq. Aynan shu aniqlik ertakni axloqiy modelga aylantiradi.

Ertaklardagi safar, sinov va yordamchilarning o‘rni

Safar motivi uchala matnda ham syujetni harakatga keltiradi, biroq uning masofasi va ma’nosi bir xil emas. Momotaro aniq manzil – Onigasima oroliga yo‘l oladi, ya’ni uning safari geografik jihatdan belgilangan [Ozaki, 1903]. Jek Kornuoll va Uels bo‘ylab bir necha bor harakatlanadi va har bir yangi hudud yangi gigantni anglatadi [Jacobs, 1890]. No‘xatpolvonning harakati esa ko‘proq xavf tomon yo‘nalgan: u makonni emas, vaziyatni o‘zgartiradi.

Sinovning tabiati ham farqlanadi: J.Kempbell qahramonlik syujetlarining umumiy sxemasini tavsiflab, sinovni qahramonning ichki o‘zgarishi bilan bog‘lagan edi [Campbell, 1949]. Uch ertakda esa bunday ichki o‘zgarish deyarli kuzatilmaydi: qahramonlar boshidanoq shakllangan holda kirib keladi va syujet davomida o‘zgarmaydi. Bu M.Lyutining ertak personaji psixologik chuqurlikka ega emas, u faqat harakat qiladi degan kuzatishiga mos keladi [Lüthi, 1982].

Yordamchi funksiyasi esa uch matnni eng aniq ajratuvchi element: “Momotaro”da yordamchilar syujetning teng huquqli ishtirokchisi; ularsiz g‘alaba tasavvur qilinmaydi. “Jack the Giant-Killer”da yordam sehrli buyumlar shaklida keladi va ularni ham qahramon o‘zi qo‘lga kiritadi [Lang, 1889]. “No‘xatpolvon”da esa yordamchi obraz syujetni hal qiluvchi darajaga ko‘tarilmaydi. Uch xil yechim – uch xil ijtimoiy tasavvur: jamoa, shaxs va tug‘ma qudrat.

Makonning tashkil etilishi ham farqli: “Momotaro”da xavfli hudud dengiz bilan ajratilgan alohida orol; chegara aniq va uni kesib o‘tish alohida harakatni talab qiladi. “Jack the Giant-Killer”da esa xavf oddiy makon ichida tarqalgan – gigantlar

odamlar yashaydigan hududning chekkasida joylashgan. Uchinchi variantda xavf qahramonning o‘z muhitiga bostirib kiradi. M.Eliade muqaddas va dunyoviy makon chegarasi arxaik tasavvurda tartibning asosiy o‘lchovi ekanini ko‘rsatgan edi [Eliade, 1963]; uch ertakdagi bu uch yechim shu chegaraning uch xil joylashuvini aks ettiradi.

Uch qahramonlik modelining qiyosiy tavsifi

Yuqoridagi bo‘limlarda alohida ko‘rib chiqilgan kuzatishlarni yaxlit ko‘rinishda taqdim etish qiyosning aniqligini oshiradi. Quyidagi jadval uch matnni V.Proppning funksiyalar ro‘yxatiga tayangan yagona tizim bo‘yicha tavsiflaydi [Propp, 1968: 65]:

“No‘xatpolvon”, “Jack the Giant-Killer” va “Momotaro” ertaklarida qahramonlik modelining qiyosiy-tipologik xususiyatlari

Ko‘rsatkich	“No‘xatpolvon”	“Jack the Giant-Killer”	“Momotaro”
Qahramonning kelib chiqishi	g‘ayritabiiy (no‘xatdan)	oddiy (dehqon o‘g‘li)	g‘ayritabiiy (shaftolidan)
Harakatga undovchi sabab	yaqinlarga tahdid	hududdagi xavf	jamoaga qarshi talonchilik
Antagonist	dev	gigantlar (Kormoran va boshq.)	onilar
G‘alaba vositasi	tug‘ma jismoniy qudrat	tuzoq va hisob-kitob	taqsimlangan hamkorlik
Yordamchi	hal qiluvchi emas	sehrli buyumlar (o‘zi qo‘lga kiritgan)	it, maymun, qirg‘ovul
Safar makoni	ochiq, chegarasi noaniq	bir necha hudud ketma-ket	dengiz ortidagi orol
Yakuniy natija	adolatning tiklanishi	ritsarlik unvoni	xazinaning oilaga qaytishi
Ustuvor qadriyat	kuch va adolat birligi	shaxsiy tashabbus	jamoaviy majburiyat

Jadval tadqiqot obyektlariga xos ikki konseptual jihatni bir vaqtda badiiy muvozanatda ko‘rsatadi. Vertikal o‘qish har bir ertakning ichki kompozitsion izchilligi va strukturaviy yaxlitligini ochadi: masalan, “Momotaro”da g‘ayritabiiy tug‘ilish, kolektiv (taqsimlangan) hamkorlik va xazinaning oila (ijtimoiy muhit)ga qaytarilishi yagona epik mantiqning uch badiiy bo‘g‘ini bo‘lib, ular bir-birini zaruriyat taqozosi bilan talab qiladi. Gorizontal o‘qish esa folklorik farqlarni differensial tarzda ajratadi. Ayniqsa, “g‘alaba vositasi” va “ustuvor qadriyat” ko‘rsatkichlari (qatorlari) muhim, chunki matnlardagi qolgan barcha syujet elementlari aynan shu ikki dominant omil atrofida konsentratsiyalashadi (birlashadi).

E’tiborli jihati shundaki, g‘ayritabiiy tug‘ilish motivi uch matndan ikkitasida uchraydi, ammo ikki holatda ham boshqa vazifani bajaradi: “No‘xatpolvon”da u qahramonga kuch beradi, “Momotaro”da esa vakolat beradi. Bu S.Tompsonning motiv bir xil bo‘lsa ham uning syujetdagi vazifasi an’anaga qarab o‘zgarishi haqidagi kuzatishini tasdiqlaydi [Thompson, 1946: 415]. Aynan shu sababli motivlarni sanash qiyosiy tahlil uchun yetarli emas, ya’ni motivning matn ichida nima qilayotganini kuzatish zarur.

Yuqoridagi tahlil natijalarini uch darajada umumlashtirish mumkin:

Birinchi daraja – funksional sxema. Uchala ertakda qahramonning odatiy makondan chiqishi, xavfli hududga kirishi, antagonist bilan to‘qnashuvi va tartibni

tiklashi ketma-ketligi takrorlanadi. V.Propp modeli bu o‘xshashlikni to‘liq tushuntiradi [Propp, 1968: 25].

Ikkinchi daraja – g‘alaba mexanizmi. Aynan shu darajada uch an’ana bir-biridan ajraladi. No‘xatpolvon tug‘ma qudrat bilan, Jek tayyorgarlik va hisob-kitob bilan, Momotaro esa taqsimlangan hamkorlik bilan yutadi. Bu farqni motivlar ro‘yxati ko‘rsatmaydi, chunki uchala matnda ham kurash motivi mavjud. U faqat harakatning ichki mantig‘ini kuzatganda ko‘rinadi.

Uchinchi daraja – tarixiy qayta ma’nolanish. Bu jarayon “Momotaro” misolida hujjatlashtirilgan: ertak XX asrda ta’lim va ideologiya vositasiga aylantirilgan [Antoni, 1991: 178; Henry, 2009: 220]. Britaniya materialida ham shunga yaqin holat kuzatiladi – Jek obrazi turli davrlarda mahalliy qahramondan milliy timsolga qadar o‘zgarib turgan [Green, 2007].

Bu uch daraja bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, ular ketma-ket joylashgan: universal sxema imkoniyat maydonini beradi, milliy an’ana undan aniq variantni tanlaydi, tarix esa tanlangan variantga yangi mazmun yuklaydi. B.Bettelxaym ertakning axloqiy ta’sirini yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi aniq chegara bilan izohlagan edi [Bettelheim, 1976]; qiyosiy material bu chegaraning o‘zi ham madaniy jihatdan o‘zgaruvchan ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalarni umumiy folklorshunoslik kontekstiga joylashtirish ham foydali. R.Dorson qiyosiy tadqiqotning asosiy xavfi o‘xshashliklarni haddan tashqari umumlashtirish ekanini ta’kidlagan edi [Dorson, 1972], J.Brunvand esa har bir matnni avvalo o‘z an’anasi ichida tushunish zarurligini eslatadi [Brunvand, 1978]. Yuqoridagi tahlil shu ikki ogohlantirishni hisobga oldi: uch matn avval alohida, so‘ngra qiyosiy tarzda ko‘rib chiqildi. Shuning uchun aniqlangan farqlar tasodifiy tafsilot emas, har bir an’ananing ichki mantig‘idan kelib chiqadi.

Nihoyat, qiyosiy tahlilning metodologik natijasi ham qayd etilishi kerak. J.Kempbell taklif qilgan yagona qahramonlik sxemasi [Campbell, 1949] uch matnni bir qatorga joylashtirish imkonini beradi, ammo ularning farqini tushuntirmaydi. Universal model qiyosning boshlanish nuqtasi bo‘la oladi, yakuni bo‘la olmaydi. Milliy mazmun aynan universal sxemadan chetlanishlarda emas, uning ichki to‘ldirilishida yashiringan – bu esa har bir matnni o‘z konteksti bilan birga o‘qishni talab qiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlil quyidagi konseptual xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, “No‘xatpolvon”, “Jack the Giant-Killer” va “Momotaro” ertaklari yagona funksional syujet sxemasini namoyon etsa-da, uni turli milliy-badiiy mazmun bilan to‘ldiradi. Sxemaning umumiyligi tarixiy o‘zlashtirish (migratsiya) dalili emas, balki S.Tompson va X.Y. Uter ta’kidlagan tipologik yaqinlik qonuniyatlari doirasida izohlanadi.

Ikkinchidan, milliy o‘ziga xoslik sirtqi motivlar tarkibida emas, balki bevosita syujetni harakatlantiruvchi g‘alaba mexanizmida namoyon bo‘ladi. O‘zbek matnida qahramonlik tug‘ma epik qudrat va ijtimoiy adolat bilan, ingliz matnida individual tayyorgarlik va shaxsiy tashabbus bilan, yapon matnida esa hamkorlikni tashkil eta

bilish (kolektivizm) qobiliyati bilan o‘lchanadi. Uch turli jamiyat bir badiiy savolga, ya’ni inson o‘zidan kuchli g‘ayritabiiy kuch qarshisida nima qila olishiga uch xil g‘oyaviy-estetik javob beradi.

Uchinchidan, antagonist obrazlari funksional jihatdan yaqin bo‘lsa-da, badiiy-g‘oyaviy mohiyatiga ko‘ra tenglashtirilmaydi. Oni yapon diniy va ijtimoiy tarixi bilan, gigant Britaniya mahalliy topografiyasi va mifologik tabiati bilan, dev esa Markaziy Osiyo epik tizimi bilan bog‘langan. Matnlararo interpretatsiyada (tarjimada) bu farqlarning yo‘qolishi qiyosiy tahlilda muhim badiiy ma’lumot yo‘qotilishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, ertak matni tarixiy jihatdan o‘zgarmas statik hodisa emas. “Momotaro” misoli syujetning ijtimoiy vazifasi davrga qarab badiiy jihatdan qayta belgilanishini aniq ko‘rsatadi. Shu sababli folklor matnini o‘rganishda uning dastlabki shakli bilan bir qatorda keyingi resepsiya (o‘qilish va qabul qilinish) tarixi ham hisobga olanishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot folklor universalligi va milliy o‘ziga xoslik bir-biriga zid toifalar emasligini tasdiqlaydi. Universal sxema – bu tayyor mazmun emas, balki har bir etnik jamoa o‘z tarixiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy tartibi haqidagi tasavvurini joylashtiradigan arxetipal shakldir. Xalq ertagi shu ma’noda badiiy matn bo‘lish bilan birga etnomadaniy xotirani saqlash mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

Tadqiqotning cheklovlari va istiqbolli yo‘nalishlari ham qayd etilishi lozim. Tahlil har bir an’anadan bittadan matn bilan chegaralandi, shu sababli xulosalar butun milliy folklorga emas, tanlangan kanonik matnlarga taalluqli. Keyingi bosqichda har bir an’anadan bir nechta variant jalb etilishi, o‘zbek materiali esa turli hududiy variantlar bo‘yicha qiyoslanishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, g‘alaba mexanizmi mezonini boshqa folklorik va epik janrlar – dostonga va afsonaga tatbiq etish alohida tadqiqot mavzusi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aarne, A., & Thompson, S. (1961). *The types of the folktale: A classification and bibliography* (2nd rev. ed.). Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia.
2. Afzalov, M., Rasulov, Z., & Sarimsoqov, B. (Eds.). (1988). *O‘zbek xalq ertaklari*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Ajiye, P., & Mustofa, A. (2014). The comparative study of Jack and the Beanstalk and Momotaro: Propp’s 31 functions on folktales. *Litera Kultura, 2*(1), 1–8.
4. Antoni, K. (1991). Momotarō (The Peach Boy) and the spirit of Japan: Concerning the function of a fairy tale in Japanese nationalism of the early Shōwa age. *Asian Folklore Studies, 50*(1), 155–188.
5. Bascom, W.R. (1954). Four functions of folklore. *The Journal of American Folklore, 67*(266), 333–349.
6. Bascom, W.R. (1965). The forms of folklore: Prose narratives. *The Journal of American Folklore, 78*(307), 3–20.
7. Bauman, R. (1977). *Verbal art as performance*. Rowley: Newbury House.
8. Bettelheim, B. (1976). *The uses of enchantment: The meaning and importance of fairy tales*. New York: Alfred A. Knopf.
9. Briggs, K.M. (1970–1971). *A dictionary of British folk-tales in the English language: Incorporating the F.J. Norton collection* (2 parts in 4 vols.). London: Routledge & Kegan Paul.

10. Brunvand, J.H. (1978). *The study of American folklore: An introduction* (2nd ed.). New York: W.W. Norton.
11. Dorson, R.M. (Ed.). (1965). *The study of folklore*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
12. Dundes, A. (1980). *Interpreting folklore*. Bloomington: Indiana University Press.
13. Dorson, R.M. (Ed.). (1972). *Folklore and folklife: An introduction*. Chicago: University of Chicago Press.
14. Eliade, M. (1963). *Myth and reality* (W.R. Trask, Trans.). New York: Harper & Row.
15. Finnegan, R. (1992). *Oral traditions and the verbal arts: A guide to research practices*. London: Routledge.
16. Green, T.A. (2007). Tom Thumb and Jack the Giant-Killer: Two Arthurian fairytales? *Folklore, 118*(2), 123–140.
17. Henry, D.A. (2009). Japanese children's literature as allegory of empire in Iwaya Sazanami's Momotarō (The Peach Boy). *Children's Literature Association Quarterly, 34*(3), 218–228.
18. Holbek, B. (1987). *Interpretation of fairy tales: Danish folklore in a European perspective*. Helsinki: Academia Scientiarum Fennica.
19. Iwaya, S. (1894). *Nihon mukashibanashi, dai-1pen: Momotarō*. Tokyo: Hakubunkan.
20. Jacobs, J. (1890). *English fairy tales*. London: David Nutt.
21. Campbell, J. (1949). *The hero with a thousand faces*. New York: Pantheon Books.
22. Lang, A. (Ed.). (1889). *The blue fairy book*. London: Longmans, Green.
23. Lévi-Strauss, C. (1955). The structural study of myth. *The Journal of American Folklore, 68*(270), 428–444.
24. Lüthi, M. (1982). *The European folktale: Form and nature* (J.D. Niles, Trans.). Philadelphia: Institute for the Study of Human Issues.
25. Madvaliyev, A. (Muhr.). (2020). *O'zbek tilining izohli lug'ati* (3-jild). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
26. Malinowski, B. (1948). *Magic, science and religion and other essays*. Boston: Beacon Press.
27. Mashrapova, G.A. (2026). Comparative-typological analysis of quest motifs in world folktales. *RUDN Journal of Studies in Literature and Journalism, 31*(2), 374–384.
28. Opie, I., & Opie, P. (1974). *The classic fairy tales*. London: Oxford University Press.
29. Ozaki, Y.T. (1903). *The Japanese fairy book*. London: Archibald Constable.
30. Propp, V. (1968). *Morphology of the folktale* (2nd ed., L.Scott, Trans.). Austin: University of Texas Press.
31. Reider, N.T. (2003). Transformation of the oni: From the frightening and diabolical to the cute and sexy. *Asian Folklore Studies, 62*(1), 133–157.
32. Reider, N.T. (2010). *Japanese demon lore: Oni from ancient times to the present*. Logan: Utah State University Press.
33. Seki, K. (Ed.). (1963). *Folktales of Japan* (R.J. Adams, Trans.). Chicago: University of Chicago Press.
34. Thompson, S. (1946). *The folktale*. New York: The Dryden Press.
35. Thompson, S. (1955–1958). *Motif-index of folk-literature* (Vols. 1–6). Bloomington: Indiana University Press.
36. Uther, H.-J. (2004). *The types of international folktales: A classification and bibliography, based on the system of Antti Aarne and Stith Thompson* (Vols. 1–3). Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia.
37. Zipes, J. (2006). *Why fairy tales stick: The evolution and relevance of a genre*. New York: Routledge.
38. Zipes, J. (2012). *The irresistible fairy tale: The cultural and social history of a genre*. Princeton: Princeton University Press.

REFERENCES

1. Aarne, A., & Thompson, S. (1961). *The types of the folktale: A classification and bibliography* (2nd rev. ed.). Helsinki: Finnish Academy of Science and Letters.

2. Afzalov, M., Rasulov, Z., & Sarimsoqov, B. (Eds.). (1988). *Uzbek Folk Tales*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing House of Literature and Art.
3. Ajiye, P., & Mustofa, A. (2014). The comparative study of Jack and the Beanstalk and Momotaro: Propp's 31 functions on folktales. *Literary Culture, 2*(1), 1–8.
4. Antoni, K. (1991). Momotarō (The Peach Boy) and the spirit of Japan: Concerning the function of a fairy tale in Japanese nationalism of the early Shōwa age. *Asian Folklore Studies, 50*(1), 155–188.
5. Bascom, W.R. (1954). Four functions of folklore. *The Journal of American Folklore, 67*(266), 333–349.
6. Bascom, W.R. (1965). The forms of folklore: Prose narratives. *The Journal of American Folklore, 78*(307), 3–20.
7. Bauman, R. (1977). *Verbal art as performance*. Rowley: Newbury House.
8. Bettelheim, B. (1976). *The uses of enchantment: The meaning and importance of fairy tales*. New York: Alfred A. Knopf.
9. Briggs, K.M. (1970–1971). *A dictionary of British folk-tales in the English language: Incorporating the F.J. Norton collection* (2 parts in 4 vols.). London: Routledge & Kegan Paul.
10. Brunvand, J.H. (1978). *The study of American folklore: An introduction* (2nd ed.). New York: W.W. Norton.
11. Campbell, J. (1949). *The hero with a thousand faces*. New York: Pantheon Books.
12. Dorson, R.M. (Ed.). (1965). *The study of folklore*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
13. Dorson, R.M. (Ed.). (1972). *Folklore and folklife: An introduction*. Chicago: University of Chicago Press.
14. Dundes, A. (1980). *Interpreting folklore*. Bloomington: Indiana University Press.
15. Eliade, M. (1963). *Myth and reality* (W.R. Trask, Trans.). New York: Harper & Row.
16. Finnegan, R. (1992). *Oral traditions and the verbal arts: A guide to research practices*. London: Routledge.
17. Green, T.A. (2007). Tom Thumb and Jack the Giant-Killer: Two Arthurian fairytales? *Folklore, 118*(2), 123–140.
18. Henry, D.A. (2009). Japanese children's literature as allegory of empire in Iwaya Sazanami's Momotarō (The Peach Boy). *Children's Literature Association Quarterly, 34*(3), 218–228.
19. Holbek, B. (1987). *Interpretation of fairy tales: Danish folklore in a European perspective*. Helsinki: Finnish Academy of Science and Letters.
20. Iwaya, S. (1894). *Japanese Old Tales, Part 1: Momotarō*. Tokyo: Hakubunkan Publishing House.
21. Jacobs, J. (1890). *English fairy tales*. London: David Nutt.
22. Lang, A. (Ed.). (1889). *The blue fairy book*. London: Longmans, Green.
23. Lévi-Strauss, C. (1955). The structural study of myth. *The Journal of American Folklore, 68*(270), 428–444.
24. Lüthi, M. (1982). *The European folktale: Form and nature* (J.D. Niles, Trans.). Philadelphia: Institute for the Study of Human Issues.
25. Madvaliyev, A. (Ed.). (2020). *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language* (Vol. 3). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing House.
26. Malinowski, B. (1948). *Magic, science and religion and other essays*. Boston: Beacon Press.
27. Mashrapova, G.A. (2026). Comparative-typological analysis of quest motifs in world folktales. *RUDN Journal of Studies in Literature and Journalism, 31*(2), 374–384.
28. Opie, I., & Opie, P. (1974). *The classic fairy tales*. London: Oxford University Press.
29. Ozaki, Y.T. (1903). *The Japanese fairy book*. London: Archibald Constable.
30. Propp, V. (1968). *Morphology of the folktale* (2nd ed., L. Scott, Trans.). Austin: University of Texas Press.
31. Reider, N.T. (2003). Transformation of the oni: From the frightening and diabolical to the

cute and sexy. *Asian Folklore Studies, 62*(1), 133–157.
32. Reider, N.T. (2010). *Japanese demon lore: Oni from ancient times to the present*. Logan: Utah State University Press.
33. Seki, K. (Ed.). (1963). *Folktales of Japan* (R.J. Adams, Trans.). Chicago: University of Chicago Press.
34. Thompson, S. (1946). *The folktale*. New York: The Dryden Press.
35. Thompson, S. (1955–1958). *Motif-index of folk-literature* (Vols. 1–6). Bloomington: Indiana University Press.
36. Uther, H.-J. (2004). *The types of international folktales: A classification and bibliography, based on the system of Antti Aarne and Stith Thompson* (Vols. 1–3). Helsinki: Finnish Academy of Science and Letters.
37. Zipes, J. (2006). *Why fairy tales stick: The evolution and relevance of a genre*. New York: Routledge.
38. Zipes, J. (2012). *The irresistible fairy tale: The cultural and social history of a genre*. Princeton: Princeton University Press.